



# TIBBIYOT SIRLARI

The official newsletter of BITI



**BUXORO INNOVATSION  
TIBBIYOT INSTITUTING  
NASHRI**

**USHBU SONDA:**

**BITI 1 YOSHDA.  
YIL SARHISOBI**

**ZAKOVATDA "BUXORO"  
JAMOASI CHEMPION**

**EZGULIK VA MEHR-SHOVAT  
QALB QUYOSHIDIR**

**FOTOREPORTAJ: INSTITUTNING  
CHET EL INSTITUTLARI BILAN  
HAMKORLIGI**

**"SHIFOKORLIK ABADIYAT KASBI:  
VOLONTYORLARIMIZ AMALIYOTDA**

**NIMA UCHUN SHIFOKORLAR  
AYNAN OQ XALAT KIYADILAR**

**GENDER ADOLATI**

**XALQARO HAMKORLIK  
ASOSIDA BUXORO  
INNOVATSION TIBBIYOT  
INSTITUTIDA TA'LIM TIZIMINI  
TUBDAN  
TAKOMILLASHTIRISHNING  
ASOSIY OMILLARI**

## **BITI-1 YOSHDA YIL SARHISOBI**

Joriy yilning 17-iyun kuni Buxoro shahri "Yoshlar markazi" binosining katta tantanalar zalida Buxoro Innovatsion Tibbiyot Instituti tashkil topganligini bir yilligi munosabati bilan "BITI 1 yoshda. Yillik sarhisob" deb nomlangan bayram tadbiri o'tkazildi. Bayramga tashrif buyuruvchilar yoqimli skripka kuylari sadosi ostida kutib olindi.



Tadbir davlatimiz rahbari **Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning** ``Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar ilm va ijodkor ziyolilaridir`` degan so'zlari sadosi ostida boshlandi.



Shu o'rinda oliy ta'lim sohasida soglom raqobat muhitini shakllantirish va oliy ma'lumotli kadrlar qamrovini oshirish, har bir hududda kamida bittadan nodavlat oliy bilim yurti tashkil qilish muhimligini aytib o'tdilar. Bunday keng imkoniyatlardan foydalangan holda Buxoroi sharifda **2022-yil 28-iyul sanasida Buxoro Innovatsion Tibbiyot Institutiga tamal toshi qo'yildi.**



Ushbu so'zlar yangragandan keyin institut rektori **Amonova Matluba Muxtorovna**, Buxoro innovatsion tibbiyot texnikumi direktori **Rahmonov Ulug'bek Giyasovich** va ta'sischi **Umurov Feruz Faxriddinovich** tomonidan institut va texnikum talabalari, ishchi hodimlari va mehmonlarini tabriklab, o'zlarining ezgu niyatlarini bildirishdi. Institutning shu holatga kelgunicha bosib o'tilgan mashaqqatli mehnat, uning hozirgi kundagi erishgan yutuqlari va kelajakdagi istiqbolli rejalari jamlangan videorolik namoyishi tadbir qatnashchilarida katta ta'surotlar uyg'otdi. Tadbir davomida institutning rivojlanishida o'zining munosib hissasini qo'shgan professor o'qituvchilar hamda institut hayotini yorituchi videoroliklar tayyorlagan, institutning faoliyatiga befarq bo'lmagan talabalar ham quyidagi nominatsiyalar bo'yicha munosib taqdirlanishdi.



**Eng yaxshi videorolik nominatsiyasida** 10d22 guruh talabasi Mansurov Mirjon, 8d22 guruh talabasi Sayfullayev Asilbek, 15d22 guruh talabasi Nasrullayeva Maxliyo, 6d22 guruh talabasi Elmurodov Akmal, 14d22 guruh talabasi Sattorova Dilmora g'olib deb topildi va esdalik sovg'alari hamda vaucher bilan taqdirlanishdi.

Tadbirimiz davomida yilning **eng yaxshi volontyor talabasi** Qosimova Umida Murodjon qizi, **yilning Eng Komik talabasi** Nasimov Shaxzod Shuxrat o'g'li, **yilning tashkilotchi talabasi** Islomov Doston Bozorboy o'g'li, **Buxoro innovatsion tibbiyot texnikumining YIL talabasi** Atoyev Diyor Shuxratovich, **Qizlar o'rtasida Yil talabasi** Avezova Madina Islomovna, **Yigitlar o'rtasida Yil talabasi** Sayfullayev Aslbek Oltin o'g'li, **Yilning Eng Yaxshi Guruhi** 19D22-GURUH, **Buxoro innovatsion tibbiyot texnikumining Eng yaxshi GURUHI** Hamshiralik ishi 104-guruhlar g'olib deb topildi va rag'batlantirildi.



**Institutning Eng yaxshi Amaliyotchi o'qituvchisi** Sadullayeva Matlyuba Axrorovna, **Yilning Eng yaxshi Maruzachisi** Shukurov Ilhom Boltayevich, **Ayollar o'rtasidagi YIL O'qituvchisi** Elmurodova Nilufar Baxtiyorovna, **Erkaklar o'rtasidagi YIL O'qituvchisi** Hotamov Bekzod Farhodovich, **Buxoro innovatsion tibbiyot texnikumining YIL O'qituvchisi** Sadirova Dilorom Rajabovna, **Yilning Eng yaxshi Xo'jalik Xodimi** Ergasheva Dildora Olimovna, **Yilning Eng yaxshi Ma'muriyat Xodimi** Samatov Ravshan Raufovichlar nominatsiya g'oliblari deb topildi va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



## ZAKOVATDA "BUXORO" JAMOASI CHEMPION

Xabar qilinganidek, shu kunlarda Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida (Chimyon tog'ida) joylashgan Yoshlar oromgohida Respublika davlat va nodavlat OTMLarining 1-prorektorlari uchun 24-27-may kunlari o'quv-seminar tashkil etilgan.

Dasturga muvofiq Respublikaning 14 ta hududidan kelgan 200 nafardan ortiq prorektorlar tarkibidan "Zakovat" intellektual o'yinini o'ynash uchun shakllantirilgan 20 ta jamoa ichida Buxoro viloyatidan kelgan prorektorlarning BUXORO jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Ushbu jamoa tarkibida Yoshlar bilan ishlash va tashkiliy ishlar bo'lim boshlig'i **Samatov Ravshan Raupovich** Buxoro innovatsion tibbiyot instituti nomidan qatnashib jamoani chempion bo'lishida o'z hissasini qo'shdi.



## EZGULIK VA MEHR SAHOVAT QALB QUYOSHIDIR

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti talabalari tashabbusi bilan institut ma'muriyati birgalikda Buxoro "Muruvvat" nogironligi bo'lgan bolalar uchun internat uyiga tashrif buyurishdi.

Yiqilganni suyash, ko'makka muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish azaliy qadriyatlarimizdan, - shu bois ham nogironlar va kam ta'minlangan fuqarolarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash har bir sog'lom fikrlaydigan inson e'tiborida bo'lishi kerak. Maqsadimiz esa bitta: - o'ksik ko'ngillarga quvonch ulashish.



Buxoro innovatsion tibbiyot instituti talabalari 25 may Bitiruv oshqomi munosabati bilan unutilmas shou tashkil qilishdi.

Talabalar bolajonlar bilan dildan suhbatlashib, Vatanimiz ertasi kelajagimiz egalari sifatida ularni kelgusida ilmli va shijoatli, o'z taqdirini yurt taqdiriga daxldor deb his etishga undashdi. Ularning manfaatlarini qonunlarimiz bilan himoyalanganligini tushuntirishdi.

Tadbir so'nggida esdalik sovg'alari topshirildi. Bu muassasada tarbiyalanayotgan mehrga va e'tiborga muhtoj bolajonlar uchun ko'rsatilayotgan e'tibordan ularning murg'ak ko'ngli tog'dek ko'tarildi.



## BUXORO INNOVATSION TIBBIYOT INSTITUTINING HAMKORLIK SHARTNOMALARI

**Buxoro innovatsion tibbiyot instituti** Azimed hospital, Carmen plus, Perinatal markazi, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Buxoro filiali, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Buxoro viloyati filiali, Estelife klinik, Mehriyoyo shifo klinikasi, Qahramon Rahimjon nevrologik klinikasi, Fadil Med Centr kabi klinikalar bilan o'zaro keng qamrovli hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bunday hamkorlikdan maqsad nazariyani amaliyot bilan integratsiyalab, tajribali ustozlardan yetarli bilim, malaka va ko'nikmalarni olib, har tomonlama yetuk mutaxassis shakllantirishdan iboratdir.



### SANKT-LUKA KLINIK KASALXONASI

**Попов Сергей Валерьевич**

Sankt-Peterburg Sankt-Luka klinik kasalxonasining bosh shifokori.

Sankt-Luka klinik kasalxonasi, shahar endoskopik urologiya va yangi texnologiyalar markazi rahbari. Tibbiyot fanlari doktori. Rossiya Federatsiyasining xizmat ko'rsatgan shifokori.

Batafsil ma'lumotni <https://lucaclinic.ru> sayti orqali olishingiz mumkin.



### R.R. VREDEN NOMIDAGI TRAVMATOLOGIYA VA ORTOPEDIYA MILLIY TIBBIYOT TADQIQOT MARKAZI

**Черный Андрей Жоржевич**

Davolash ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tibbiyot fanlari nomzodi dotsent.

Batafsil ma'lumotni <https://rniito.ru> sayti orqali olishingiz mumkin.

## FOTOREPORTAJ:

### BUXORO INNOVATSION INSTITUTI RAHBARIYATI ROSSIYA FEDERATSIYANING NUFUZLI INSTITUTLARI BILAN MEMORANDUM IMZOLADI





Hurmatli hamkasblar, bugun 2023 - yil 6 - iyun kuni Respublika onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Buxoro filiali direktori doktor G'afur Normurodovich Saidov bilan onkologik yordamni tashkil etish bo'yicha tibbiyotda hamkorlik to'g'risida yana bir memorandum imzolandi.



Bugun 3 iyun kuni Samarqand shahrida "O'zbekiston - Rossiya" xalqaro forumi boshlandi. Forumda O'rta Osiyo departamenti rahbari, prezident Konstantin Prudnikov va uyushmamiz vakillari Farrux Umurov, Feruz Umurovlar ishtirok etishdi.

Konferensiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vaziri doktor Inoyatov Amrillo Shodiyevichning ma'ruzasidan boshlandi.



Barcha imzolangan hujjatlar va shartnomalar nafaqat so'z va qog'ozda bo'lsin, ammo O'zbekiston aholisining salomatligini mustahkamlash va farovonligini oshirish maqsadida qo'shma ishlarda amalga oshirildi.



Prezident, Hurmatli Shavkat Miromonovich Mirziyoyev va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vaziri, hurmatli doktor Inoyatov Amrillo Shodiyevichga mukammal tashkil etilgan tadbir - "O'zbekiston-Rossiya" xalqaro tibbiy forumi uchun minnatdorchilik bildiramiz.

# BIZDA FOTOREPORTAJ: VOLONTYORLARIMIZ AMALIYOTDA



# Tibbiy ta'limning kelajagi Buxoro Innovatsion Tibbiyot Instituti talqinida

Tibbiyot instituti prorektori sifatida men doimo tibbiy ta'limning kelajagi haqida o'ylayman. 10, 20 yoki 50 yil ichida u qanday ko'rinishga ega bo'ladi? Qanday qilib biz talabalarimizni doimiy ravishda o'zgarib turadigan sog'liqni saqlash landshaftining qiyinchiliklari va imkoniyatlariga tayyorlashimiz mumkin?

Menimcha, tibbiy ta'limning kelajagi bir qator asosiy tendensiyalar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, innovatsiyalar va texnologiyalarga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Ikkinchidan, individual ta'limga ko'proq e'tibor qaratiladi. Biz har bir talabaning individual ehtiyojlari va o'qitish uslubiga moslashtirilgan o'quv rejalarini yaratish uchun ma'lumotlar va tahlillardan foydalanamiz.

Sifatli ta'limni tashkil qilish uchun biz tibbiyotni qanday o'rgatishimiz bo'yicha ba'zi bir tub o'zgarishlarni amalga oshirishimiz kerak. Biz an'anaviy ma'ruzaga asoslangan modeldan uzoqlashishimiz va xorijiy tajribaga asoslangan o'qitishning faol usullaridan foydalanishimiz kerak. Shuningdek, biz o'rganish va hamkorlik uchun yanada qulay muhit yaratishimiz kerak. Biz yanada qiziqarli va interaktiv o'rganish tajribasini yaratish uchun virtual haqiqat va sun'iy intellekt boshqa ilg'or texnologiyalardan foydalanish va ularni tibbiyotga tadbiiq qilishni rejalashtiryapmiz.

**Tibbiyot institutimizda ushbu tendensiyalar qanday amalga oshirilayotganiga bir nechta aniq misollar:**

**Ta'lim sifati.** Bizda nufuzli chet el oliygohlarida malakasini oshirgan professor-o'qituvchilar bor bo'lib, talabalarimizni tibbiy amaliyotdagi qiyinchiliklarga tayyorlaydigan qat'iy o'quv dasturlari orqali bilim berishadi.

**Talabaga bepul tajriba olish imkoniyatini beradigan volontyorlik dasturi.** Biz tibbiyot talabalari uchun jamiyat bilan shug'ullanish muhim deb hisoblaymiz. Biz talabalarimizga qimmatli tajriba orttirish va boshqalarning hayotini yaxshi tomonga o'zgartirish imkoniyatini beradigan bir qator ixtiyoriy dasturlarni taklif etamiz.

**Eng yaxshi talabalar uchun stipendiyalar.** Biz munosib talabalarga ta'lim uchun pul to'lashda yordam berish uchun bir qator stipendiyalarni taklif qilamiz.

**O'qish uchun chegirma.** Har bir inson moliyaviy ahvolidan qat'i nazar, tibbiyot sohasida o'qish va martaba orttirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Biz ilg'or, salohiyatli talabalarga o'qish uchun chegirma taklif qilamiz.



**Burxanov Jasur Jamshidovich**

Buxoro Innovatsion Tibbiyot Instituti

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

## Sport-salomatlik garovi

Buxoro innovatsion tibbiyot institutida ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning barcha sport musobaqalarida faol qatnashishi, sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2020 yil 30 oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099 Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, 03.06.2023 yil kuni Buxoro innovatsion tibbiyot instituti professor-o'qituvchilari va ishchi xodimlari o'rtasida **"Shaxmat-shashka"**, **"Stol tennisi"** sport turlari bo'yicha musobaqalar bo'lib o'tdi.



Har bir professor-o'qituvchilar va ishchi xodimlar raqiblari bilan o'tgan bu musobaqada o'yin shiddatli, murosaga boy tarzda va qizg'in o'tdi. Musobaqada faol ishtirok etgan va yuqori o'rinlarni egallagan professor o'qituvchilar va ishchi xodimlar, Buxoro innovatsion tibbiyot instituti rektori M.Amonova tomonidan I-II-III o'rinlarga diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanib, ularga kelgusi ishlarida omad, zafarlar, samimiy tilaklar bildirildi.



Sport har doim insoniyatning sog'lom hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Buxoro innovatsion tibbiyot institutida tashkil qilingan shaxmat, shashka va stol tennis sport musobaqasida 50 dan ortiq professor-o'qituvchilar va ishchi xodimlar qatnashdilar.



### Davronov Nodir Nematovich

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti sport targ'ibotchisi

## Nima uchun shifokorlar aynan oq xalat kiyadilar?

Oq xalat kiygan odamni ko'rganimizda, biz darhol tibbiyot muassasasi xodimi bilan muomala qilayotganimizni anglaymiz. Tibbiyot xodimlari nega oq xalat kiyishini bilasizmi? Ushbu maxsus ust kiyim paydo bo'lganiga uncha ko'p vaqt bo'lmaganligini bilasizmi?



Atrofdagi hamma biladiki, ko'plab kasblarning o'ziga xos maxsus ust kiyimi bor: tibbiyot xodimlarida, dengizchilarda, temir yo'l ishchilarida, harbiylarda. Hozirda shifoxona va poliklinika ishchilarini oq xalatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Albatta, bugungi kunda ranglar va modellarda turli xil farqlar mavjud, ammo faqat oq xalat, ongli ravishda, bizda ishonch tug'diradi - bu shifokor - u yordam beradi.

Qiziqarli tomoni shundaki, "xalat" so'zi arab tilidagi "hil at" so'zlar birikmasidan olingan bo'lib, "sharafli libos" degan ma'noni anglatadi.

## Tarixga kichik sayohat

Oq xalatlar haqidagi ilk ma'lumotlar XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. ilgari, tibbiy yordam ko'rsatadigan barcha shifokorlar va ularning yordamchilari oddiy matodan yoki rezinadan fartuk kiyib yurishgan. Kerak bo'lganda qo'lqop kiyishgan. Hozirga qadar shifokorlarni kiyimi orqali emas, balki qilgan ishlari orqali tanishgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida, ya'ni 60-yillarda Angliyaning Glazgo shahrida istiqomat qiluvchi jarroh-gigiyenisti Jozef Lister antiseptika nazariyasini ishlab chiqarishni boshladi va keyinchalik u tibbiyot hamjamiyati tomonidan tan olindi. Yaralarni davolashda u karbol kislotasini ishlata boshladi va bir yo'la oq xalatlar antiseptik xususiyatlarga ega degan nazariyani ishlab chiqardi. Aynan shu vaqtdan boshlab oq xalatlar davri boshlandi.

Bu nazariya atrofida juda ko'p tortishuvlar bo'lgan, ammo 1918-1919 yillarda Yevropada "ispan grippi" avj olib, o'n millionlab odamlar halok bo'lganida, oq xalatlar tibbiyot xodimlarining o'ziga xos belgisiga aylandi.



## Odinayev Tolibjon Toyirovich

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti yoshlar va tashkiliy ishlar bo'yicha prorektor

## Yangi O'zbekiston yoshlari - kelajagimiz poydevori.

Buyuk ajdodlarimiz ma'naviy-ruhiy kamolotga erishishni, doimo ogoh va hushyor yashashni, Vatan, el-yurt sha'ni, tinchligi uchun hatto jon fido etishni hayotining mazmuni deb bilgan. Yoshlarni ham ana shu ezgu amallar ruhida tarbiyalashga intilgan. Yoshlar kelajagi hamisha O'zbekiston davlat siyosatining markazida bo'lgan. Bugun ham yurtimizda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish, yoshlarning kamoloti va tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiluvchi shart-sharoit yaratish uchun barcha sohada keng ko'lamli islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda.

Prezidentimizning tashabbusi va qo'llab-quvvatlashi esa ularga bu maqsadlarni amalga oshirishda ko'mak beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim", so'zlari yoshlar uchun katta marralar sari yo'l ochdi.

Yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Sharq Uyg'onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida ularning o'rni beqiyos bo'lgan. Yoshlar siyosati bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil eta turib davlat va yoshlarning uzviy bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, Buxoro innovatsion tibbiyot institutida ta'lim-tarbiya jarayonida talaba yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, sharoitlar, ularga berilayotgan e'tibor natijasida, talabalarimiz fan va sport sohasida bir qator yutuqlarga erishib kelmoqda. Hamda Respublikamiz hayotida faollik bilan ishtirok etayotib va ko'plab yutuqlarga erishayotgan yoshlardandir. Ishonch bilan ayta olamizki, talaba-yoshlarning ko'zlaridagi olov, yuzlaridagi tabassum, qalbidagi g'ayrat va shijoat ertangi kuniga ishonchi borligini ko'rsatib turibdi. O'z kelajagi uchun befarq bo'lmagan ilmi, salohiyatli, o'zining ustida doimiy ishlaydigan malakali kadrlar doimo vatanimiz g'ururi va kelajagimizning buyuk davomchilaridir.



**Odayev Tolibjon Toyirovich**

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti yoshlar va tashkiliy ishlar bo'yicha prorektor

## Gender adolati faqat ayollar emas, erkaklar uchun ham kerak

Gender adolati – G'arbda paydo bo'lishidan ancha avval VIII asrda Markaziy Osiyodavujudga kelgan.

Shaxslar ijtimoiy mavqei, jinsi va boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlaridan qat'i nazar inson huquqlaridan bir xilda foydalana olishsa, gender tengligi yuzaga keladi.



Bitta huquq ham erkakda, ham ayolda bo'lsa-yu, erkak bu huquqdan foydalansa, ammo ayol ayol bo'lgani uchun ham foydalana olmasa, mana shu nuqtada gender muvozanati buziladi. Bunday buzilishlarning bo'lishi esa jamiyatda erkaklar ustunroq, ayollar quyiroqda degan tushunchani paydo qilishi mumkin. Aslida esa huquqlar baravar, lekin shu huquqdan foydalanish imkoniyati turli to'siqlar bilan kamaytiriladi.

Gender tengligi bo'yicha muammolar ilgari ham yetarlicha mavjud bo'lgan. Ammo ular haqida gapirilmagan, muammolar tabiiy hol deb qabul qilingan bo'lishi mumkin. Lekin boshqa manbalar o'qilsa, Qur'on va hadislar bilan tanishsa, aslida boshqacha bo'lishi, muammolarsiz yashash mumkinligini tushunish mumkin. O'zbek mentalitetida ham, dinimizda ham ayolni xo'rlash yo'q.

### “Gender tengligini eng birinchi buzadiganlar - onalar”.

Gender tengligini birinchi navbatda onalar buzishadi. Chunki qizlarga ham, o'g'il bolalarga ham, jamiyatga ham onalar tarbiya beradi. Ba'zida onalarning o'zlari qizlarning huquqlarini buzayotganiga guvoh bo'lamiz – o'qishga kiritib, kontrakt pulingni to'laguncha, shu pulga sarpongni qilib beramiz, deyishadi. Shu gaplarimiz bilan qizlar va yigitlarning imkoniyatlari orasidagi tenglikka daxl qilamiz Odamlarning bunday harakatlari natijasida notenglik odatga aylanib boradi, oqibatda davlatning o'zi ham bunga e'tibor bermay qo'yishi, jamiyat notenglik muhitiga ko'na boshlashi mumkin.

Davlat o'z siyosatini gender yondashuvi bo'yicha tashkil qilishi kerak. Erkaklarning ham, ayollarning ham o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda ularga o'z huquqlaridan bir xilda foydalana olishini kafolatlashi lozim.

**Razzoqova Shaxnoza  
Jo'rayevna**  
Buxoro innovatsion tibbiyot  
instituti  
Xotin-qizlar qo'mitasi raisi.

# BOLA TARBIYASIDA OILADAGI MULOQOTNING ROLI

Mustaqillik va iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida kishilarning ongini, yetukligini yuksaltirish, ma'naviy jihatdan boyitish jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Sog'lom barkamol inson har bir xalq, millat, davlat kelajagining nurli istiqbolidir. Binobarin, barkamol, ma'naviy boy, axloqan pok va jismonan sog'lom kishilarni tarbiyalab voyaga yetkazish ilk bor oilada amalga oshiriladi.

Kishiga bir umr hamroh bo'ladigan insoniy fazilatlar – ezgulik, yaxshilik, yaratuvchanlik, fidoyilik, sadoqat, mardlik, rahm-shafqat kabi xislatlar dastlab oilada shakllanadi. Keyingi yillarda islohotlarning natijasi tufayli ta'lim-tarbiya sohasida ko'plab ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmogda, milliylikimiz tiklanib, moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizning yangi sahifalari ochildi.

Mustaqil hayotga qadam qo'yishning dastlabki bosqichida har qanday o'spirin ijtimoiy yordamga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj odatda oila muhitida qondiriladi. Biroq, ota-onasiz yoki ularning qarovidan mahrum bo'lgan bolalar va Bolalarni mustaqil hayotga to'laonli shaxs sifatida tayyorlash davlat va jamiyat tomonidan katta kuch sarflanishini talab qiladi.

Hozirgi kunda farzandlar bilan ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkillashtirish uchun turli to'siqlar xalaqit beradi.

Jumladan, band bo'lish "to'sig'i", ota-onalar doimo band bo'lishadi, farzandlariga e'tibor berolmaydilar, chunki ularning uy yumushlari ko'p. Ammo bu farzandda hissiy rivojlanishni to'xtashiga olib keladi. 2-to'siq yoshga bog'liq bo'lib, bunda kattalarning yoshi ulug' bo'lgani uchun bolani tushunmaydilar. Farzandlarining ichki dunyosini hisobga ololmaydilar. Kattalar uchun arzimagan narsalar ular uchun muhim bo'lishi mumkin. Eski qolip "to'sig'i"- ota-onalar o'zining farzandini yoshi ulg'ayib borayotganligini sezishmaydi. Farzand ulg'ayib borgan sari ota-onasining u bilan hisoblashishlarini istaydi.

Masalan, yoshlar internet orqali yoshiga mos kelmaydigan kinolar ko'rishlari, uyali telefon orqali juda ko'p muloqotda bo'lishlari, hatto notanish shaxslar bilan ham telefon, internet orqali ko'r-ko'rona muloqotda bo'lishlari orqali ularda salbiy xarakter xislatlari shakllanadi.



Bundan tashqari ular diqqatining parishonligi, nutqining, muloqotga kirishishning buzilishi, ya'ni turli xil bema'ni so'zlarni ishlatishlari, fantaziyalarining buzilishi, irodasining kuchsiz bo'lib shakllanishiga olib keladi.

Bugungi kunda o'quvchilarning dars mashg'ulotlariga qiziqishlarining pasayib ketishiga ham yuqoridagi holatlar, ya'ni haddan tashqari telefon orqali muloqotda bo'lishlari sabab bo'lmoqda.

Biz pedagoglar, ota-onalar internetdan to'g'ri foydalanishni, uyali telefondan qanday, qachon foydalanish lozimligini yoshlarimizga, ayniqsa qizlarga o'rgatishimiz kerak.

Shuningdek, Bolalik davrida yuzaga keladigan yana bir muammolardan biri atrofdagilar bilan yuzaga keladigan, nizoli xolatlardir. Mazkur ichki nizolarning paydo bo'lishiga oilaviy munosabatlardagi tortishuv va janjallar, oiladagi salbiy psixologik muhit, shaxslararo munosabatdagi ziddiyatlar, biror-bir ish, vazifa va topshiriqlarni mustaqil bajara olmaslikni anglash, atrofidagilarning e'tibori, qo'llab-quvvatlashi, hurmat - extiromini his qilmaslik, erta jinsiy balog'atga etish va boshdan kechirilgan turli kasalliklar ham sabab bo'lishi mumkin.

Natijada Bolalar imkon qadar yolg'iz qolishga, ota-onasi, yaqinlari nazaridan chetda bo'lishga intiladilar, do'stlari yoki tengdoshlari bilan kamroq muloqot qilishga urinadilar.



Bolalar xarakterida esa o'ta ta'sirlanuvchanlik, tez xafa bo'lish, jizzakilik, tajovuzkorlik, o'ziga bo'lgan bahoning noadekvatligi, odamovilik kabi sifatlar kuzatiladi. Tengdoshlar, ota-ona va pedagoglar tomonidan tan olinishiga erishishga intilish ehtiyojining qondirilmasligi fojeaday qabul qilinishi ichki nizolarning kuchayishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ta'kidlangan farzand tarbiyasidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratisla va farzandga berilayotgan oila tarbiyasida g'amxo'rlik hamda talabchanlikning munosib ravishda bo'lishi fidoyi, oila va jamiyat oldidagi mas'uliyatini xis etadigan shaxsning kamol topishiga erishish eng oliy maqsaddan darakdir.



## **BAXRONOVA KOMILA YADGOROVNA**

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti «**Umumta'lim va fundamental fanlar**» kafedrasini mudiri, p.f.f.d., (PhD), dotsent  
Email: [komilaba338@gmail.com](mailto:komilaba338@gmail.com)

## **XALQARO HAMKORLIK ASOSIDA BUXORO INNOVATSION TIBBIYOT INSTITUTIDA TA'LIM TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI**

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti faoliyatining ajralmas qismi va ta'lim sifati hamda uning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Institut xalqaro faoliyati O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi obro'-e'tiborini oshirishga va jahon ta'lim makonida yanada rivojlanishga qaratilgan. Ushbu faoliyat chet elning yetakchi universitetlari bilan hamkorlik dasturlari, xalqaro ta'lim dasturlari va loyihalarini amalga oshirish, qo'shma ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish, ilmiy-amaliy seminarlar va konferentsiyalarni tashkil etish, professor-o'qituvchilar tarkibi almashinuvi va talabalar mobilligini rivojlantirish doirasida amalga oshiriladigan ishlarni nazarda tutadi.

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti bir yillik faoliyati davomida ko'plab xorijiy universitetlar va Yevropadagi xalqaro tashkilotlar bilan barqaror aloqalar olib borishga erishdi. Xalqaro faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu MDHga a'zo davlatlarning universitetlari bilan hamkorlik qilishdir. Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Belorusiya va boshqalar universitetlar bilan hamkorlik shartnomalari tuzilgan. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda institut ko'plab boshqa oliy o'quv yurtlari, tadqiqot markazlari va Yevropa, va Osiyodagi tibbiyot muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatmoqda.

Buxoro davlat innovatsion institutida ta'lim xizmatlarini almashish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Xalqaro aloqalar institut tomonidan xorijiy hamkor universitetlarning yetakchi mutaxassislari ishtirokida xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalar, seminarlarda ishtirok etish va davra suhbatlarini tashkil etish va o'tkazish amalga oshirib kelinmoqda.

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti xorijiy universitetlar, tibbiy ilmiy markazlar va klinikalar bilan 10 dan ortiq hamkorlik shartnomalariga ega.

Xalqaro hamkorlik asosida institutni yaqin kelajakda rivojlantirish istiqbollari va maqsadi sifatida quyidagilarni amalga oshirish belgilangan:

- ta'lim sifatini oshirish;
- ta'limning yangi shakllari va texnologiyalarini joriy etish;
- xalqaro ta'lim tizimida ishtirok etish;
- bitiruvchilarning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh- ligini ta'minlash;
- ta'lim bozorida institutning nufuzini oshirish.
- talabalarning xalqaro akademik mobillikda ishtirok etish imkoniyati masalasini ko'rib chiqish.
- Davlatlararo kelishuv bo'yicha Xalqaro akademik mobillikni amalga oshirishga erishish.
- Xalqaro ilmiy va ta'lim faoliyati dasturlari doirasida grantlar yutish, shartnomalar va loyihalarda ishtirok etish.
- Chet el ta'lim, ilmiy va jamoat tashkilotlari, konferentsiyalari tashkiliy qo'mitalarida ishtirok etish.
- institut professor o'qituvchilari, talabalarining va magistrant- larining chet tillarini bilish darajasini oshirish;
- Talabalarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish, ilmiy

tashabbuskorligini oshirish.

- institutning xorijiy hamkor universitetlar va xalqaro tashkilotlar bilan bevosita aloqalarini kengaytirish.

- Qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha shartnomalar tuzish.

- Professor-o'qituvchilar malakasini oshirish.

- ta'lim sifatini kafolatlash uchun chet el agentliklari tomonidan akkreditatsiya qilingan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish.

Ushbu vazifalarni bajarish mexanizmi Buxoro innovatsion tibbiyot institutini rivojlantirish bo'yicha mavjud bo'lgan hamkorlik shartnomalarini tizimlashtirish, mobillikning mumkin bo'lgan yo'nalishlarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadbirlar tibbiy ta'lim sifatini oshirish, oliy va o'rta maxsus professional tibbiy ta'lim tizimini eng yaxshi xalqaro tajribalar darajasida bosqichma-bosqich shakllantirish hamda tibbiyot muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratadi.



**Shukurov Ilhom Boltayevich**

*Buxoro innovatsion tibbiyot instituti professori*

## **YANGI O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY TA'LIM**

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqidaso'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha tizimli ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari, akademik liseylarning moddiy bazasi kun sayin mustahkamlanib bormoqda. Ular zamonaviy o'quv xonalari va laboratoriya jihozlari, zamonaviy axborot vositalari, axborot-resurs markazlari bilan ta'minlanmoqda. Oliy o'quv muassasalari oliy ta'lim standartlari, me'yoriy-o'quv rejalari modernizasiya qilingan dasturlar, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanmoqda. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib borish uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Lekin ta'lim jarayoni ilm fanning eng so'nggi yutuqlari asosida qanchalik texnologiyalashtirilmasin, pirovard natijaga erishish, ya'ni puxta, chuqur bilim berish, yuqori intellektual salohiyat, raqobatbardoshlik yuqori sifat, samaradorlikka erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib boruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy malakasi, mahorati, ijodkorligi, ilg'or texnologiyalar, innovasiyalarni o'z pedagogik faoliyatiga olib kirish va qo'llay olishi mahoratiga bog'liq bo'laveradi.



Yoshlarni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlash maqsadida ta'lim tizimi izchil rivojlantirilmoqda. Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, aholi salomatligini saqlash borasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida, shuningdek, jamoatchilik tomonidan tibbiy xizmatlar ko'lami va sifatini oshirish yuzasidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, Buxoro shahrida zamonaviy va jahon standartlariga javob beradigan Buxoro innovatsion tibbiyot instituti tashkil etildi.

Ta'lim dargohida "Volontyorlik" dasturi ham tashkil etilgan bo'lib, unda talabalar 1-kursdanoq o'zlari qiziqish bildirgan yo'nishlari bo'yicha viloyatdagi ko'zga ko'ringan klinikalarda amaliyot o'tash imkoniyati yaratilgan.



Barcha islohotlar, sa'y-harakatlar ta'limga qaratilgan bir davrda Buxoro innovatsion tibbiyot instituti moddiy texnik bazasini bugungi kun imkoniyatlari darajasida barpo etishga harakat qilmoqda. Talabalarga sifatli ta'lim berish maqsadida dars jarayonlari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan amaliyot va o'quv xonalarida amalga oshirilib, talabalar piar ko'zoynaklar bilan amaliy mashg'ulotlarni bajarishi mumkin.



Ta'limni olib borganda pedagogik motivlar, ehtiyojlar, manfaatdorlik, maqsadlarni ko'zda tutgan holda o'quv jarayonini tashkil etish zarur.



**Raximov Giyas Rahmonovich**  
**"Davolash ishi va stomatologiya"**  
 **fakulteti dekani**

# BUXORO INNOVATSION TIBBIYOT INSTITUTI ROBOTEXNIKA KLUBI FAOLIYATI

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti rahbarlari tashabbusi bilan ixtirochi olimlarni shakllantirish maqsadida robotexnika klubi tashkil etildi.

### Robotexnikaning maqsadi:

- Tibbiy xizmat sifatini oshirish innovatsiyalarni rag'batlantirish;
- Sog'lom raqobatni rivojlantirish robototexnikaga qiziqishni uyg'otish
- Tibbiyot va texnologiya birikmasi tibbiyot kelajagini shakllantirish



### Tibbiy xizmat sifatini oshirish:

Robototexnikani tibbiyot sohasida o'rganish orqali klub sog'liqni saqlash sohasida ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llashga yordam beradi. Bu tibbiy xizmat sifatini yaxshilashga, bemorlarning natijalarini yaxshilashga va tibbiy amaliyotda oldinga siljishga yordam beradi.



### Innovatsiyalarni rag'batlantirish:

Robototexnika klubi talabalarga robototexnikani tibbiy kontekstda o'rganish va tajriba o'tkazish uchun platforma yaratib, innovatsiyalar markazi bo'lib xizmat qiladi. Bu ijodiy fikrlashni, muammolarni hal qilishni va tibbiyot sohasidagi muammolarga yangi yechimlarni ishlab chiqishni rag'batlantiradi. Bu kelajakdagi tibbiyot mutaxassislari orasida innovatsiya madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.


### Tibbiyot kelajagini shakllantirish:

Klub sog'liqni saqlashda robototexnikaning innovatsion qo'llanilishini o'rganish orqali tibbiyot kelajagini shakllantirishga hissa qo'shadi.

Ishtirokchilar nogironlar uchun robotlashtirilgan qurilmalar, tibbiy tasvirlash algoritmlari, reabilitatsiya texnologiyalari yoki yordamchi qurilmalarni tadqiq qilishlari va ishlab chiqishlari mumkin. Ushbu hissa tibbiyot amaliyotida inqilob qilishi va bemorlarni parvarish qilishni yaxshilashi mumkin.

Robototexnika klubi tibbiyot va texnologiya sohalari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etadi. Bu tibbiyot, muhandislik, informatika va biotexnologiya kabi turli fanlar talabalari o'rtasida fanlararo hamkorlikni rivojlantiradi. Ushbu hamkorlik muammolarni hal qilishda yaxlit yondashuvni rivojlantiradi va turli sohalardagi g'oyalar bilan o'zaro changlanishni rag'batlantiradi.

Tibbiy texnologiyalar va raqamli tibbiy yechimlarning ahamiyati ortib borayotganligi sababli, robototexnika klubi "IT shifokorlari" paydo bo'lishi uchun zamin yaratmoqda. Ushbu mutaxassislar tibbiy tamoyillarni ham, texnologik yutuqlarni ham chuqur tushunishadi, bu ularga texnologiyadan samarali tibbiy yordam, ma'lumotlarni tahlil qilish, telemeditsina va boshqa ko'p narsalarni amalga oshirish uchun foydalanishgaimkon beradi.



## AXLOQIY MADANIYATNING JAMIYATIMIZDAGI AHAMIYATI

Axloqiy madaniyatning qadr-qimmati va ahamiyati, xuddi axloq kabi, kishilarning xulq-atvori, muloqoti va faoliyatida, oshkora dunyoqarashida, shaxsiy o'rnak ko'rsatishida yuzaga chiqishi barchamizga sir emas albatta. Axloqiy madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan to'g'ri anglash, uning jamiyat, madaniy taraqqiyoti va shaxs ma'naviy dunyosini shakllantirishdagi salmoqli o'rni asos bo'la oladi. Maqolada talabalarning axloqiy madaniyatini shakllantirishning ahamiyati atroflicha yoritilgan.



Talabalarning madaniyatini, ma'naviy-axloqiy salohiyatini ko'tarmoq, milliy mafkurasini uyg'otmoq bugungi kunning dolzarb masalasidir. Zero, o'zini anglagan, millat ma'naviyatini tushungan insongina xalqini, millatini, Vatanini, oilasini va institutini taniydi, sevadi, ardoqlaydi. Xalq va millat oldidagi burchni, mas'uliyatini, majburiyatini anglaydi. Insonning ma'naviy-axloqiy barkamol bo'lishi xalq, davlat, jamiyat ma'naviyatiga asos bo'ladi.

Shunday ekan, yoshlarga chuqur nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy malaka, ko'nikmalar hosil qilish, ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalari va muammolariga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatish, Vatanni sevish, ajdodlari yaratgan bebaho ma'naviy javohirlarni imkon qadar egallash, ularni asrab-avaylash va boyitish, mamlakatimiz kelajagini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning bugungholatini chuqur tahlil qilish, jahondagi va mamlakatimizdagi ma'naviy, aqliy bilimlardanfoydalanib, voqelikda faol ishtirok etish ruhida tarbiyalash bugungi kun talabidir. Ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi shakllangan talaba-yoshlarda ma'naviy-axloqiy bilim, ma'naviy-axloqiy tafakkur, ma'naviy-axloqiy idrok fazilatlarini tushunish darajalari rivojlangan bo'ladi. Ma'naviy idrok, axloqiy iroda, hatti-harakat va malakalar bir-birini to'ldirib, talabaning shaxsiy hayoti, faoliyatida o'z ifodasini namoyish etadi.

Shaxs axloqiy madaniyati mazmunan guruh, institut yoki jamiyat axloqiy madaniyatiga to'g'ri keladi.

.Lekin ulardan o'zining subyektiv fikrlashi va ifodalanishi, muayyan axloqiy qadriyatlarni ustuvor qo'yishi va ularga yo'nalganligi bilan farqlanadi. Axloqiy madaniyatda zamon ruhi, ijtimoiy kuchlarning kayfiyati, intilishi ham o'z ifodasini topishi shart. U bugungi O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda istiqloq dunyoqarashini shakllantirishda ulkan ta'sir ko'rsatadi.



**Amonova Matluba Muxtorovna**

*Buxoro innovatsion tibbiyot instituti  
rektori, k.f.f.d.,(PhD) dotsent*

## "Tibbiyot sirlari" gazetasi №1 (23 iyun 2023)

**Bizning manzil:** Buxoro shahri O. Eshonov ko'chasi,

**Mo'ljal:** "ZiyoMax" o'quv markazi.

**Bosh muharrir:** Mardonov Sanjar Yoqub o'g'li

**Gazeta uchun maqolalarni saralovchi va nashrga tayyorlovchi:** Amonova Matluba Muxtorovna

Mardonov Sanjar Yoqub o'g'li

**Telegram:** @bitiinfo

**Instagram:** biti\_uz

**Telefon:** 65 220 55 45

Gazetamizning keyingi sonlari uchun maqolalar qabul qilamiz.

